



ABDULLA QODIRIY IJODIDA JADIDCHILIKKA OID QARASHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Gulboyev Husan Shokir og'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7913553>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2023 yil
Ma'qullandi: 05-May 2023 yil
Nashr qilindi: 09-May 2023 yil

KEY WORDS

Qodiriy lirikasi, so'z qo'llash mahorati, istiqlol kuychisi, she'riy ifoda, milliy qadriyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy ijodida jadidchilikka oid qarashlarining o'ziga xos xususiyatlari qalamga olingan bo'lib, Abdulla Qodiriyning "To'y", "Ahvolimiz" kabi she'rlari badiiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek maqolada Abdulla Qodiriyning she'riy misralarda so'z qo'llash mahorati ham yorqin aks etkan.

Bilamizki, o'tgan davr jadidchilik faoliyatida katta ahamiyat kasb etuvchi ijodkorlar qatorida Abdulla Qodiriy nomining tilga olinishi bugungi kunda Abdulla Qodiriy ijodi uning shaxsiyatini o'rganish bilan bog'liqdir. Abdulla Qodiriy o'sha davr muhiti va kayfiyatidan kelib chiqib o'zining yaratgan asarlarida jadidchilikka oid g'oyalarni ham ilgari suradi. Bunda o'sha davr muhitida keng ommalashayotgan teatrlar, sahna asarlari, teatr truppalari bilan birgalikda badiiy asarlar ularning yaratilishi uslubi dunyo hamjamiyatida rivojlanayotgan adabiyot, san'at sohalari bilan birga mutanosiblikni tashkil etadi.

"Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov qayd etganidek: Yurtimizda Abdulla Qodiriy asarlari kirib bormagan birorta ham xonadon bo'lmasa kerak. U faqat O'zbekistonning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli adibi, ozodlik va istiqlol kuychisidir". [1] Haqiqatdan ham Abdulla Qodiriy bu borada haq bo'lib, kishilik jamiyatda sodir bo'layotgan voqea hodisalarga munosabat bildirish yoki xalqqa yetkazishda so'zga chechang'ik bo'lmog'i kerak. Bunda asosan, Abdulla Qodiriyning she'riy asarlarida yoki adabiy-badiiy asarlarida jadidchilik g'oyalarining keng talqin qilinishi va Abdulla Qodiriyning ularga bo'lgan munosabati o'ziga xoslikni tashkil etadi. Jumladan, Abdulla Qodiriy ijodkor sifatida o'zining yaratgan she'rlarida, romanlarida yoki publitsistik asarlarida ma'lum bir mavzu yuzasidangina cheklanib qolmasdan, millat va vatan taraqqiyotiga oid qarashlarni har tomonlama bayon etadi. Bunda, Abdulla Qodiriyning "Ahvolimiz", "Millatimga bir qaror", "To'y" kabi she'rlari ham kishilarning e'tiborini tortadi. Bugungi kunda adabiy jamoatchilik Abdulla Qodiriy ijodini o'rganishda nafaqat dunyo olimlarining qarashlari ya'ni o'zbek adabiyotining o'tgan asrda tutgan o'rnini, rivojlanish bosqichlari keng tarzda muhokama qilinadi. Jadidchilik sohasi va jadidchilik ishlarida faoliyat yuritgan kishilarning qatorida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon Sulaymon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li va Abdulla Qodiriylarning vazifalari, bajargan ishlari keng tarzda e'tirof etiladi. Bunda Abdulla Avloniyning maktabdorlik, darslik yaratish bo'yicha sa'y-harakatlari e'tirofga olingan bo'lsa, Mahmudxo'ja Behbudiyning teatr, san'at

va teatr sohasiga oid ilmiy asarlar, badiiy asarlari bilan keng tarzda o'ziga xoslikni tashkil etadi. Abdulla Qodiriy esa o'zining she'riy asarlarida va badiiyatida jadidchilikka oid qarashlarni namoyon etar ekan, xalqqa nisbatan tanqidiy qarashlarini ham she'riy ham badiiy ham publitsistik ruhda bayon etadi. Abdulla Qodiriyning "Ahvolimiz" nomli she'rida bugungi kunda ya'ni o'sha davr muhitidan kelib chiqib, davr kayfiyatidan kelib chiqib kishilarning g'aflatda qolmaslikka, ya'ni rivojlanishga chorlashi yuzasidan chaqiriqlar mavjud. Bunda "Ahvolimiz" deb nomlanishi ham she'rning mana shu kayfiyatini bildiradi. Aytish mumkinki, Abdulla Qodiriy, Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat va shu kabi jadidchilarning boshlagan ishlari, ilmiy salohiyati va badiiy mahorati bugungi kun o'zbek adabiyotida, nafaqat o'zbek adabiyoti balki, dramaturgiya sohasida ham tarixiy ildizlarni, tarixiy rivojlanish bosqichlarini boshlab berib, bugungi kunda ko'p sohalarning tarixi mana shu kishilar bilan bog'liq hisoblanadi. "Ahvolimiz" she'rida Abdulla Qodiriy jamiyat hayotida sodir bo'layotgan ishlar va ularga kishilarning befarq ekanligi, aksincha eski odatlarni yoqlagan holatda yangi usul maktablari taraqqiyot bosqichiga chorlovchi islohotlarga befarq qarab turgan kishilarni qoralaydi va bugungi ahvolimizga bir boqing, ey yoronlar, degan chaqiriq ostida "Ahvolimiz" she'rini bayon etadi va bunda xalqning ilmsizlik yo'lida ko'p ezilishi dunyo hamjamiyatida ro'y berayotgan taraqqiyot ishlaridan ancha chetda qolishi keng tarzda ifodalanadi. Bu borada bizning qalb ko'zlarimiz ko'rdur, g'aflatda qolib ketayotganligimizning boisi shundan dur, kabi g'oyalar bilan Abdulla Qodiriy she'riy misralariga jon kirgizgandek bo'ladi. O'g'illarimiz, qizlarimiz bugun odob olmasa, bilim olmasa, kelajakda ular beodoblikda na fan, na bir yaxshi so'zlash odobiga ega bo'lurlar va ularning ertangi kuni qanday bo'lmog'i mumkin ekanligi yuzasidan choralar ko'radi va fikrlar ketma ketligiga duch keladi. "Abdulla Qodiriy fikr ifodasining qisqa va aniqligini, kam so'z bilan ko'p ma'no berish yo'sinini qadrlab, yozishda ortiqcha so'z va jumalarni qisqartirishdan saboq beradi; yozganini yolg'iz odamning o'zigina tushunib, boshqaning anglay olmasligi adibga aslo ma'qul kelmaydi. Shu bosni "Yozg'uchilarimizg'a" nomli maqolasida: So'z so'ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak, yozg'uvchining o'zi tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb".[2]

Bizning ko'rar ko'zimiz, so'zimiz faqatgina shu kundalik turmush sharoitimizda qotibgina qolmasdan balki dunyo bilan hamnafas bo'lmoqligi lozim kabi g'oyalar Abdulla Qodiriyning „Ahvolimiz" she'rlarida ko'rinib turadi. Bunda xalqimizning azaliy urf-odatlarini, milliy an'analarini qadrlash shu bilan birgalikda ularni saqlab qolgan holatda bizning taraqqiyotimizga g'ov bo'layotgan yot illatlardan chekinishga chorlaydi. Bunda, har qanday turli holatlar vaziyatlarga munosabat bildirib, she'rni ifodali ravishda chiqishini ta'minlab beradi. She'r keltiriladi,

“Hamna har kun takalarda nasha, ko'knori chekib,
Bachchag'a kokil solib, oh-voh ila o'ynormiz.
Qarimiz, boylarimiz, balki bu vaqt oqyondamiz,
Nogahon ko'rsak, agar bir besaqolni qotamiz.
O'rtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyuvchi,
Biz ani dahriy sanab to'fangcha birla otamiz”.

Quyidagi she'rda Abdulla Qodiriy jamiyatda o'z o'rniga bo'lgan keksalar, boylar va kishilarning vaqti ko'p holatlarda bekorchi ishlar bilan ketmasligi lozimligi, qolaversa, millatni suyishi, vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishi, bu borada ziyolilar qatlamining yoshlar bilan birgalikda birlashishi keng yo'l ochib beradi. Ushbu she'rning 1915-yillar atrofidagi voqea-

hodisalar bilan munosabatga kirishishi katta bir yaxlitlikni hosil qiladi. Shuningdek, she'r yakunida chaqiriq sifatida yoshlarni chorlab qolar ekan, kelinglar deya yoshlarga ziyolilikda harakat qilmoq lozimligini, uxlamaslikni, ayni davrda uyg'oqlikni va kelajak hosilida millatning rivojlanishini ifodalab beradi. Shu bilan birgalikda, bugungi kundagi ahvolimiz deya qarilarimiz, boylarimiz nogohon ko'radigan ko'zlarimiz bo'lmish kelajak avlodni rivojlanishga chorlaydi va eski odatlardan qutulgan holatda milliy qadriyatlar, urf-odatlarimizni saqlab qolishga chaqiradi. Birgina ahvolimiz emas, boshqa she'rlarida ham mana shunday holatlar ko'zga tashlanishi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2- tom. Toshkent: O'zbekiston. - 1996
- 2..Yoshlar ishlari agentligi. "Jadidlar. Abdulla Qodiriy" risola. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.

